

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik




2023- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik

2018-2023 yillarning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), *ming birlikda*





Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **38,1** mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **8 383** taga yoki **18,0 %** ga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **15,0** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2023- yilning yanvar-iyun oylarida **3673** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **0,3 %** ga ko'p demakdir.

2023- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 2022-2023 yillarning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **38 122** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **3 673** tani tashkil etdi.


2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Zangiota tumanida **4 362** tani yoki jamiga nisbatan **11,4 %** ni tashkil etdi.

2019-2023 yillarning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

2018-2023 yillarning 1- iyul holatiga Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda



2023- yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati **15,0** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022 yil 1-iyul holatiga nisbatan **0,7** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko'rsatkich Zangiota tumani **27,6** birlik, Ohangaron shahrida **26,4** birlik, Qibray tumanida **22,3** birlik, Nurafshon shahrida **19,6** birlik, Parkent tumanida **17,8** birlikka yetdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 2023 yilning 1- iyul holatiga, birlikda)*

Zangiota t.	27,6
Ohangaron sh.	26,4
Qibray t.	22,3
Nurafshon sh.	19,6
Parkent t.	17,8
Yuqori Chirchiq t.	17,1
Yangiyo'l sh.	16,1
O'rta Chirchiq t.	15,9
Toshkent t.	15,5
Ohangaron t.	15,3
Chirchiq sh.	14,1
Bo'ka t.	13,8
Bo'stonliq t.	13,0
Yangiyo'l t.	12,5
Piskent t.	12,1
Bekobod sh.	12,0
Oqqo'rg'on t.	11,7
Bekobod t.	11,2
Angren sh.	11,1
Quyichirchiq t.	11,0
Olmaliq sh.	10,9
Chinoz t.	9,3

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori ko'rsatkich

Zangiota tumani
– 27,6 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich

Bo'ka tumani
– 13,8 birlik.

Eng past ko'rsatkich

Chinoz tumani
– 9,3 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Zangiota tumanida 27,6 birlik, Ohangaron shahrida 26,4 birlik, Qibray tumanida 22,3 birlik, Nurafshon shahrida 19,6 birlik, Parkent tumanida 17,8 birlik, Yuqori Chirchiq tumanida 17,1 birlik, Yangiyo'l shahrida 16,1 birlik, O'rta Chirchiq tumanida 15,9 birlik va Toshkent tumanida 15,5 birlik kuzatildi.

2023 yilning 1- iyul holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko'p tashkil etilgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Zangiota tumani
27,6

Ohangaron shahar
26,4

Qibray tumani
22,3

Nurafshon shahar
19,6

Parkent tumani
17,8

Yuqori Chirchiq tumani
17,1

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023 yillarning 1- iyul holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*

110	Nurafshon sh.	117
135	Olmaliq sh.	156
175	Angren sh.	175
108	Bekobod sh.	110
123	Ohangaron sh.	130
224	Chirchiq sh.	232
123	Yangiyo'l sh.	138
137	Oqqo'rg'on t.	103
102	Ohangaron t.	149
143	Bekobod t.	222
191	Bo'stonliq t.	175
131	Bo'ka t.	141
88	Quyichirchiq t.	80
363	Zangiota t.	351
174	Yuqori Chirchiq t.	158
282	Qibray t.	277
163	Parkent t.	267
118	Piskent t.	88
200	O'rta Chirchiq t.	160
127	Chinoz t.	75
172	Yangiyo'l t.	138
274	Toshkent t.	231

2022- y.

2023- y.


2023- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Zangiota t.	13,4
Qibray t.	10,6
Parkent t.	10,2
Chirchiq sh.	8,9
Toshkent t.	8,8
Bekobod t.	8,5
Bo'stonliq t.	6,7
Angren sh.	6,7
O'rta Chirchiq t.	6,1
Yuqori Chirchiq t.	6,0
Olmaliq sh.	6,0
Ohangaron t.	5,7
Bo'ka t.	5,4
Yangiyo'l t.	5,3
Yangiyo'l sh.	5,3
Ohangaron sh.	5,0
Nurafshon sh.	4,5
Bekobod sh.	4,2
Oqqo'rg'on t.	3,9
Piskent t.	3,4
Quyichirchiq t.	3,1
Chinoz t.	2,9


2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Zangiota tumani – **13,4 %**, Qibray tumani – **10,6 %**, Parkent tumani – **10,2 %**, Chirchiq shahri – **8,9 %**, Toshkent tumani – **8,8 %**, Bekobod tumani – **8,5 %**, Bo'stonliq tumani – **6,7 %**, hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




■ 2022- y. ■ 2023- y.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **714** ta, sanoatda **322** ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **221** ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Parkent tumanida **169** ta, Zangiota tumanida **168** ta hamda Qibray tumanida **156** ta yangidan tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2018-2023 yillarning 1- iyul holatiga kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da





2023- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **47,7** %ni tashkil qilib, 2022- yilga nisbatan **3,0** punktga ko'paygan.



2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **97,8** %ni, yo'lovchi tashishda **94,3**%ni, qishloq xo'jaligida **93,1** %ni, qurilishda **80,9** %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023 yillarning 1- iyul holatiga asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati





Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023 yillarning 1- iyul holatiga asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati

Hajmi, trln so'mda



Ulushi, %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati

Hajmi, trln so'mda



Ulushi, %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati

Hajmi, trln so'mda

Ulushi, %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Chirchiq sh.	1590,3
Zangiota t.	1083,5
Qibray t.	1083,3
Toshkent t.	922,9
Yuqori Chirchiq t.	809,4
Angren sh.	574,4
Ohangaron sh.	409,4
Quyi Chirchiq t.	331,9
O'rta Chirchiq t.	288,3
Parkent t.	281,3
Yangiyo'l sh.	278,6
Ohangaron t.	226,3
Nurafshon sh.	217,9
Yangiyo'l t.	200,8
Olmaliq sh.	183,0
Chinoz t.	135,7
Bo'stonliq t.	100,7
Bo'ka t.	71,0
Piskent t.	63,1
Bekobod sh.	45,1
Bekobod t.	38,0
Oqqo'rg'on t.	21,1

2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **8 956,1** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Chirchiq shahri (**1590,3** mlrd. so'm), Zangiota tumani (**1083,5** mlrd. so'm), Qibray tumani (**1083,3** mlrd. so'm), Toshkent tumani (**922,9** mlrd. so'm), va Yuqori Chirchiq (**809,4** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Oqqo'rg'on tumanida (**21,1** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, %da


Zangiota t.	91,3
Parkent t.	87,9
Toshkent t.	87,1
Quyi Chirchiq t.	80,1
Yuqori Chirchiq t.	77,4

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023 yillarning 1- iyul holatiga kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2023- yilning yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **21,7 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Zangiota tumani (**91,3 %**), Parkent tumani (**87,9 %**), Toshkent tumani (**87,1 %**), Quyi Chirchiq tumani (**80,1 %**), Yuqori Chirchiq tumani (**77,4 %**), Yangiyo'l shahar (**67,1 %**), Bekobod tumani (**56,3 %**), Bo'ka tumani (**52,1 %**), O'rta Chirchiq tumani (**44,7 %**) va Chinoz (**42,3 %**) tumanlari tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi



hudud ■ hajmi mlrd. so'm ■ foizi


2018-2023 yillarning 1- iyul holatiga kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4 359,7** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **80,3 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **108,1 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Zangiota tumani (**543,9** mlrd. so'm), Yuqori Chirchiq tumani (**372,1** mlrd. so'm), Qibray tumani (**340,2** mlrd. so'm), Quyichirchiq tumani (**313,4** mlrd. so'm), Nurafshon shahri (**294,6** mlrd. so'm), Toshkent tumani (**260,7** mlrd. so'm) hamda O'rta Chirchiq (**88,4** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.


2018-2023 yillarning 1- iyul holatiga kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023 yillarning 1- iyul holatiga kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2023- yilning yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **7 661,0** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **41,5 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning yanvar- iyun oylariga nisbatan 119,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Ohangaron tumani (**1376,7** mlrd. so'm), Quyi Chirchiq tumani (**997,6** mlrd. so'm), Zangiota tumani (**792,9** mlrd. so'm), Yuqori Chirchiq tumani (**537,8** mlrd. so'm), Angren shahri (**499,6** mlrd. so'm), Qibray tumani (**498,0** mlrd. so'm), Toshkent tumani (**430,8** mlrd. so'm), Bo'stonliq tumani (**305,0** mlrd. so'm) hamda Yangiyo'l (**289,7** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2023 yilning yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




2018-2023 yillarning yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2018-2023 yillarning 1- iyul holatiga tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Bekobod tumani (1526,2 mlrd. so'm), O'rta Chirchiq tumani (1256,9 mlrd. so'm), Bo'stonliq tumani (1168,5 mlrd. so'm), Yuqori Chirchiq tumani (974,8 mlrd. so'm), Bo'ka tumani (936,5 mlrd. so'm) hamda Chinoz (935,9 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.


2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **14 326,1** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **93,1 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **101,8 %** ni tashkil qildi.

2018-2023 yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.


2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023 yillarning 1- iyul holatiga kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **9 543,1** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **77,5 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **106,5 %** ni tashkil qildi.

2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm

Zangiota t.	1173,0
Toshkent t.	965,8
Olmaliq sh.	801,4
Bo'stonliq t.	584,1
Yangiyo'l sh.	581,2
Angren sh.	568,7
Bekobod sh.	502,9
Qibray t.	473,4
Chirchiq sh.	438,2
Oqqo'rg'on t.	436,9
Yangiyo'l t.	372,0
Parkent t.	371,9
Bo'ka t.	348,2
Chinoz t.	330,8
Yuqori Chirchiq t.	271,3
Ohangaron sh.	265,5
Piskent t.	225,6
Nurafshon sh.	180,9
O'rta Chirchiq t.	180,1
Bekobod t.	175,7
Quyi Chirchiq t.	162,1
Ohangaron t.	133,4

2018-2023 yillarning 1- iyul holatiga kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Zangiota tumani (**1173,0** mlrd. so'm), Toshkent tumani (**965,8** mlrd. so'm), Olmaliq shahri (**801,4** mlrd. so'm), Bo'stonliq tumani (**584,1** mlrd. so'm), Yangiyo'l shahri (**581,2** mlrd. so'm) va Angren (**568,7** mlrd. so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023 yillarning 1- iyul holatiga kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd. so'mda

Zangiota t.	866,3
Chirchiq sh.	821,2
Olmaliq sh.	731,7
Qibray t.	707,9
Toshkent t.	659,7
Angren sh.	616,7
Bo'stonliq t.	540,4
Yangiyo'l sh.	538,7
Yangiyo'l t.	535
Bekobod sh.	531,9
Yuqori Chirchiq t.	465,2
Parkent t.	446,2
O'rta Chirchiq t.	364,8
Bo'ka t.	337,1
Bekobod t.	328,5
Oqqo'rg'on t.	317,1
Chinoz t.	279,3
Ohangaron sh.	221
Nurafshon sh.	205,9
Quyi Chirchiq t.	192,5
Ohangaron t.	165
Piskent t.	163,1


2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **10 035,0** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **69,2** % ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **107,1** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Zangiota tumani (**866,3** mlrd. so'm), Chirchiq shahri (**821,2** mlrd. so'm), Olmaliq shahri (**731,7** mlrd. so'm), Qibray tumani (**707,9** mlrd. so'm), Toshkent tumani (**659,7** mlrd. so'm), Angren shahri (**616,6** mlrd. so'm) va Bo'stonliq (**540,2** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


2018-2023 yillarning 1- iyul holatiga kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, ming. AQSH dol.




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


Hajmi, ming. AQSH dol.



Ulushi, %da




2018-2023 yillarning 1- iyul holatiga kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi




2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **276,2** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **29,3 %** ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Yangiyo'l shahri - **97,8 %**, Quyi Chirchiq tumani - **97,4 %**, Bekobod tumani - **95,8 %**, Qibray tumani - **94,5 %**, Bo'ka tumani - **91,0 %**, Yuqori Chirchiq tumani - **89,5 %**, Zangiota tumani - **88,3 %**, va Toshkent tumani - **87,6 %**, eng past ko'rsatkich Olmaliq shahrida - **2,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023 yillarning 1- iyul holatiga kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **942,3,4** million AQSH dollarini yoki jami importning **51,6** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da


2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Bekobod tumani – **100,0** %, Quyi Chirchiq tumani – **100,0** %, Parkent tumani – **99,4** %, Zangiota tumani – **97,7** %, Yangiyo'l shahri – **92,7**%, O'rta Chirchiq – **87,7** % ni tashkil etdi.

Bekobod t.	100,0
Quyi Chirchiq t.	100,0
Parkent t.	99,4
Zangiota t.	97,7
Yangiyo'l sh.	92,7
O'rta Chirchiq t.	87,7
Yuqori Chirchiq t.	86,9
Toshkent t.	86,8
Nurafshon sh.	86,5
Chirchiq sh.	82,0
Qibray t.	79,1
Bo'ka t.	68,9
Chinoz t.	63,9
Oqqo'rg'on t.	58,3
Piskent t.	46,2
Angren sh.	42,7
Yangiyo'l t.	37,8
Ohangaron sh.	32,9
Ohangaron t.	30,5
Bo'stonliq t.	24,9
Olmaliq sh.	7,4
Bekobod sh.	1,4


Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati



Yuk
tashishda



Yuk
aylanmasida



Yo'lovchi
tashishda



Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **30,1 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **131,4 %** ni tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **59,98 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **104,0 %** ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,3 %** ni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **100,2 %** ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,8 %** ni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **100,1 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonaga va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonaga va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **2 018** ta kichik korxonaga va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **647 (32,1 %)**tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **1147 (56,8 %)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **224 (11,1%)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **38,1 % (769 ta)**, xizmatlar sohasida – **29,5 % (596 ta)**, sanoatda – **17,0 % (344 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **8,8 % (177 ta)**, qurilishda – **6,6 % (132 ta)**ni tashkil etdi.

2023- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2023-yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Zangiota tumani (231 ta), Qibray tumani (199 ta), Toshkent tumani (153 ta), Chirchiq (119 ta) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi(joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar soni 2018- yilda **354** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **647** taga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **293** taga oshgan.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar soni 2018- yilda **782** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilda **1 146** ta yoki **364** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar soni esa 2018- yilda **94** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib **225** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018- yilga nisbatan **131** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023 yillar uchun umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarining soni 2018- yilda **632** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib **672** taga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **40** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2018- yilda **516** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib 943 taga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **427** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2018- yilda **75** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib **151** taga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **76** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar uchun umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilda **28,8 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **32,1 %** ga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **3,3 %** ga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2018- yilda **63,6 %** bo'lgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2023- yilda **56,8 %** yoki **6,8 %** ga kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018- yilda **7,6 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **11,1 %** ga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **3,5 %** ga oshgan. .

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar uchun umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilda **51,7 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **38,1 %** ga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **13,6 %** ga kamaygan.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilda **42,2 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **5,4 %** ga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **11,2 %** ga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018- yilda **6,1 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **8,6 %** ga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **2,4 %** ga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **38,0** %ni, xizmatlar sohasida – **32,5** % ni, sanoatda – **14,2** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **39,1** % ni, xizmatlar sohasida – **28,0** %ni, sanoatda – **18,0** %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **33,3** %ni, xizmatlar – **28,0** %ni, sanoatda – **20,6** %ni tashkil etdi.

2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **35,2** %ni, xizmatlar sohasida – **30,8** %ni, sanoatda – **18,1** %ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda – **40,5** %ni, xizmatlar sohasida – **28,1** %ni, sanoatda – **16,4** %ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda – **42,2** %ni, xizmatlar sohasida – **31,3** %ni, sanoatda – **14,1** %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	25,5	16,4	30,9
Band bo'lganlar soni	15,6	22,3	19,5
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	19,9	20,4	17,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	16,2	21,6	19,5
Raqobat muhiti	22,8	19,3	12,9

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	25,8	16,6	22,9
Band bo'lganlar soni	16,4	22,1	18,1
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	18,9	20,6	19,8
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	17,9	21,0	21,7
Raqobat muhiti	21,0	19,6	17,4


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli